

Otalikni belgilash bola ta'minoti bilan uzviy bog'liqligi uchun bu toifadagi ishlar sudlarda qisqa muddatlarda ko'rib chiqiladi.

Otalikni belgilash nizolarini ko'rishda sud da'vogar va javobgarning bola tug'ilgunga qadar umumiy ro'zg'or asosida oila yuritgan-yuritmaganligiga, bolani birgalikda tarbiyalaganliklariga, otalikni tan olganligiga, bolaga va uning onasiga moddiy va ma'naviy yordam berilganligi va boshqa dalillar mavjudligiga huquqiy baho berib qonuniy, asosli va adolatli qaror chiqarishi lozim.

Javobgar otalikni tan olmaganligida va da'voni qanoatlantirish uchun asoslar yetarli bo'lmaganida odam DNKsi bo'yicha sud-biologik ekspertizasi tayinlash amaliyotda ko'p uchraydi.

Otalikni belgilash haqida da'vo berish huquqiga ega shaxs sudga bergan da'vo arizasiga bolaning otaligi belgilanmaganligini tasdiqlaydigan tug'ilganlik guvohnomasi nusxasini taqdim qilishi shart.

Sudning hal qiluv qarori bilan otalik belgilanganida qabul qilingan hal qiluv qarori qonuniy kuchga kimgach FXDYO bo'limiga dalolatnoma yozuviga o'zgartirish kiritish uchun yuboriladi. Hal qiluv qaroriga asosan FXDYO organi bolaga yangi tug'ilganlik to'g'risida guvohnoma beradi.

Otalikni belgilash va aliment undirish da'volari bo'yicha da'vogar davlat bojidan ozod qilingan. Biroq, da'vo qanoatlantirilsa, davlat boji javobgardan undirilishini qonunchilik istisno qilmaydi.

Shuningdek, otalikni belgilash da'volari bo'yicha qonunchilikda da'vo muddati qo'llanmasligi belgilab qo'yilgan. Ya'ni, da'vogarlar bu mazmundagi da'vo bilan istalgan paytda murojaat qilishga haqli.

XULOSA

Bolaning onasi bilan nikohda bo'lmagan, lekin o'zini bolaning otasi deb tan olgan shaxs vafot etgan taqdirda uning otalik fakti sud tomonidan belgilanishi mumkin.

Bunday holatda sudda ish da'vo yuritish tartibida emas, balki manfaatdor shaxsning arizasiga asosan alohida ish yuritish, ya'ni yuridik fakti belgilash tartibida ko'rib chiqiladi.

Otalikni belgilash bilan bog'liq nizolarning ko'payganligi fuqarolarning huquqiy bilimi yetarli emasligini, bu borada fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash bo'limlari, mahalla profilaktika inspektorlari olib borayotgan ishlar, shuningdek, bunga mas'ul shaxslarning sud bilan hamkorligi yetarli darajada yo'lga qo'yilmaganligini ko'rsatmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. 8-COH 25.11.2011. Sudlar tomonidan otalikni belgilashga oid... -lex.uz
2. Rakhmonkulov Kh. Subjects of civil law.-Tashkent: TDYul, 2008.-68 p.
3. Zakirov I.B. Civil rights. Part I.-Tashkent: TDYul, 2009.-166 p.

4. Baratov M.Kh. State participation in civil-legal relations: theory and practice.- Tashkent: TDYul, 2008.-32 p.
5. Zakirov I.B. Civil rights. Part I.-Tashkent: TDYul, 2009.-240 p.
6. Ibrokhimov Azimjon Abdumumin Ugli (2021). FIDUCIARY OBLIGATIONS IN CORPORATE MANAGEMENT AND POSSIBILITIES OF ASHING THEM IN UZBEKISTAN. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1 (10), 841-853. doi: 10.24412/2181-1784-2021-10-841-853
7. Asadov, Shahriddin Fakhriiddin O'Li (2021). STATE PARTICIPATION IN CIVIL-LEGAL RELATIONS (IN THE EXAMPLE OF PUBLIC-PRIVATE PARTNERSHIP). Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1 (11), 789-799. doi: 10.24412/2181-1784-2021-11-789-799
8. Koryogdiyev, Bobur Umidjon Ogli (2021). DEFINING A TRANSACTION NOT GENUINE AND AVOIDING ITS CONSEQUENCES AS A MEANS OF PROTECTING CIVIL RIGHTS. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1 (11), 211-225. doi: 10.24412/2181-1784-2021-11-211-225
9. Boltaev M.S. Specific features of the voluntary medical insurance contract // Lawyer newsletter - Vestnik Jurista - Lawyer herald. - Tashkent, 2021. No. 3. - B. 37-44 (12.00.00).
10. Imomov NF New objects of intellectual property law/Editor-in-Chief O. Okyulov //Tashkent: TSIL. - 2011.
11. Topildiev B. R. OSOBENNOSTI GRAJDANSKO-PRAVOVOGO REGULIROVANIYA PEREDACHI PREDPRIYATIYa V DOVERITELNOE UPRAVLENIE //PRAVOVYE ASPEKTY REGULIROVANIYa OBSHCHESTVENNYX OTNOSHENIY. - 2019. - S. 29-33.

MAKTABNING 9-11 SINFI O'QUVCHILARINI O'ZINING QIZIQTIRGAN KASB-HUNARIGA YO'NALTIRISH BO'YICHA OLIB BORILADIGAN PSIXOLOGIK FAOLIYATLAR

Berdimbetov Islambek Muratbaevich

Sarkarova Yoqutxon

Doniyor Allayarov

*Nukus shahar xalq ta'lim bo'limiga
qarashli 46-sonli maktabning
amaliyotchi psixologlari*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada o'quvchilarini kasbga yo'naltirishda dastlabki pedagogik jarayonlar tahlil etilgan bo'lib, bu jarayonda o'qituvchining pedagogik mahorati, kasb tanlashga oid bilim va ko'nikmalari, vazifalari, shuningdek kasb tanlashda shaxs hislatlari, o'quvchi psixologiyasi, o'quvchilarni kasb tanlashga tayyorligini ko'rsatuvchi mezonlar mazmuni haqida ma'lumot berilgan. Mavzu yuzasidan uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so'z: *O'qituvchi, o'quvchi, kasb-hunar maktabi, kasb, kasbga yo'naltirish, davlat, ta'lim.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕРОПРИЯТИЯ ПО ОРИЕНТИРОВАНИЮ УЧАЩИХСЯ 9-11 КЛАССОВ ШКОЛЫ НА ИНТЕРЕСУЮЩУЮ ИХ ПРОФЕССИЮ

Аннотация: *В данной статье анализируются начальные педагогические процессы в направлении учащихся к профессии, и в этом процессе педагогическом мастерство, знания и умения учителя, связанные с выбором профессии задачи, а также особенности личности в выборе профессии, психология студента, сведения о содержании критериев, свидетельствующего готовности обучающихся к выбору профессии. По теме разработаны методические рекомендации.*

Ключевые слова: *учитель, ученик, профтехучилище, профессия, профориентация, государство, образование.*

PSYCHOLOGICAL ACTIVITIES TO GUIDE STUDENTS OF 9-11 GRADES OF THE SCHOOL TO THE PROFESSION THEY ARE INTERESTED IN.

Abstract: *The article analyzes the initial pedagogical processes in guiding students to the profession, and in this process, the teacher's pedagogical skills, knowledge and skills related to choosing a profession, tasks, as well as personality traits in choosing a profession, student psychology, information is given about the content of the criteria that indicate the readiness of students to choose a profession. Methodological recommendations have been developed on the topic.*

Key words: *Teacher, student, vocational school, profession, career guidance, stste, education.*

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining kasb-hunarga yo'naltirish respublika tizimini tashkiliy, ilmiy-metodik, axborot- ma'lumot va dasturiy ta'minlash maqsadida tashkil etilgan. Kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik tashxis ishlari holatini nazorat qilish, uni takomillashtirish choralarini ko'rish, tegishli dasturlar, me'yoriy hujjatlar va tavsiyalar ishlab chiqish; mamlakatimizdagi va xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalarini umumlashtirish, ommalashtirish va hayotga tadbiq etish; barcha bosqichdagi o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik hududiy tashxis markazlari va ta'lim muassalaridagi kasb-hunarga yo'naltirish vazifasi yuklatilgan mutaxassislarining malakasini oshirish bo'yicha chora tadbirlar ishlab chiqish; umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarining hayotiy va kasbiy o'zligini anglash borasidagi ustuvor dasturlar va muammolar bilan ishlash respublika tashxis markazining eng muhim vazifalaridan hisoblanadi. O'zbekistonda maktab o'quvchilarini 7-sinfdan boshlab kasbga yo'naltirish ishlarini amalga oshirish, yuqori sinflarda zamonaviy kasb-hunar egallashlari uchun tegishli shart-sharoitlar yaratish hamda yoshlar orasida o'zini-o'zi band qilish kabi mehnat shakllarini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'quvchi-yoshlarni kasb-hunarga tayyorlash tizimini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori loyihasi ishlab chiqildi.

Unga ko'ra yangi tizimni amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- umumiy o'rta ta'lim muassasalari mutaxassislari tomonidan o'quvchilarni 7-sinfdan boshlab kasb-hunar egallash va o'zini o'zi band qilish orqali xizmatlar ko'rsatish (frilansing) yo'nalishlariga qiziqishlarini aniqlash va bunday o'quvchilarning ma'lumotlari bazasini yaratish;
- 8-9-sinf o'quvchilariga dasturchi, dizayner, tarjimon kabi istiqbolli kasblar uchun poydevor bo'ladigan bilim va ko'nikmalar berish;
- o'quvchilarining kasbiy moyilligi bo'yicha o'tkazilgan tahlillar asosida 9-sinfdan so'ng kelgusida aniq ishchi kasblar bo'yicha kasb-hunar maktablarida ta'lim olishi mumkin bo'lgan o'quvchilar o'rtasida kasbga yo'naltirish ishlarini olib borish;
- umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 10–11-sinf o'quvchilarini tanlov fanlari yo'nalishidagi (variativ) o'quv reja asosida kasb-hunarga yo'naltirish shuningdek, kasb-hunar o'rgatuvchi davlat va nodavlat tashkilotlarda vaucher tizimi asosida yuqori malaka talab qilinmaydigan kasblarga o'rgatish nazarda tutilmoqda.

Yangi O'zbekistonning 2022–2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida umumta'lim maktablari kasb o'rganish istagidagi bitiruvchilarining davlat tomonidan kamida bir kasbni egallashiga ko'maklashuvchi tizimni joriy etish vazifasi belgilangan. Ana shu topshiriq ijrosini ta'minlash maqsadida ko'rilayotgan chora-tadbirlar o'quvchilarning muayyan kasb o'rganib, maxsus malakaga ega, raqobatbardosh kadr bo'lib yetishishiga

xizmat qiladi. O'quvchilarning kasb--hunar haqidagi tasavvurini kengaytirish va qiziqishini aniqlash maqsadida xalq ta'limi tizimida o'qitilayotgan 18 ta umumta'lim fanlari bo'yicha Milliy o'quv dasturi doirasida yaratilayotgan zamonaviy darsliklarga 302 ta kasbga oid mavzular kiritilgan. Dars jarayonida mazkur kasblar haqidagi tushunchalar o'quvchilarga hayotiy misollar orqali yetkazilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, o'g'il--qizlarning hunar egallash va o'zini o'zi band qilish orqali xizmatlar ko'rsatish yo'nalishiga qiziqishini aniqlashga ko'maklashmoqda. O'g'il--qizlarning kelajakda munosib kasb egasi bo'lishiga ko'maklashish maqsadida kasb.maktab.uz va profnavigator.uz elektron platformalarida testlar majmuasi berilgan. Ular orqali o'quvchilar o'zining qaysi kasbga qobiliyatli ekanini aniqlashi mumkin. O'quvchilarni zamonaviy kasblarga yo'naltirish va o'qitish uchun "Milliy ta'lim resurslari"da 25 dan ziyod zamonaviy sohani o'rgatuvchi 700 dan, "kasb.maktab.uz"da 500 dan, "profnavigator.uz"da 450 dan ortiq videodarslik, videokontent, taqdimot hamda professiogramma joylashtirilgan. Ayni paytda o'quvchilar mazkur manbalardan unumli foydalanib, o'zini qiziqtirgan kasblar haqida batafsil ma'lumot olish bilan birga ushbu kasblarni o'rganish imkoniyatiga ham ega. Har bir kasb egasi murabbiy ko'magida kamolga yetadi. Hunar egallash istagidagi o'quvchilarni ustozga birlashtirish orqali sohaga oid zarur tajriba va mahoratini shakllantirish, bilim va ko'nikmasini rivojlantirish mumkin. O'quvchilar texnologiya fani darslarida mehnatning har xil turlariga oid bilimlarni olish bilan birga maxsus ko'nikma va malakaga ham ega bo'ladi. Qobiliyatini rivojlantiradi, amaliy mashg'ulotda layoqatini sinab ko'radi. Shu bois, kasbga yo'naltirishni umumta'lim maktabi faoliyatining tarkibiy qismi, deb bema'lol aytish mumkin. Chunki o'qishdan maqsad insonning jamiyatda o'z o'rnini topishi, tirikchiligi uchun zarur miqdorda daromad orttirishidir. Agar kasb to'g'ri tanlangan bo'lsa, mehnat egasi uchun quvonch, ilhom manbaiga aylanadi. Bu esa inson uchun ham, jamiyat uchun ham birdek foydali. Shuning uchun o'quvchilarni kasbga yo'naltirishga ijtimoiy--pedagogik masala sifatida qarash har jihatdan to'g'ri.

Xulosa qilib shuni aytganda, O'quvchilarni kasbga yo'naltirish jarayonida, birinchi navbatda, ularning qobiliyati va mehnati jamiyat manfaatlariga mos tarzda e'tiborga olinishi lozim. Jarayonda turli sohalar, ularni egallash uchun qo'yiladigan talablar, tanlangan yo'nalishi bo'yicha mutaxassis tayyorlaydigan muassasalar to'g'risida ma'lumot berish katta ahamiyatga ega. Bu o'g'il--qizlarni kasb tanlashga ongli munosabatda bo'lishga tayyorlaydi. Kasbga yo'naltirish tizimi shaxsga muayyan soha va unga doir zarur ko'nikmalarni o'rganishda yordam beruvchi maqsad, mohiyat, prinsip, uslub va vositalar birligidir. Bu vazifa barcha o'quv--tarbiya ishlari bilan bog'liq holda olib boriladi. O'quvchini u yoki bu kasbga maqsadli yo'naltirishdan avval uning shaxsini o'rganish lozim. O'g'il--qizlar kasblar to'g'risidagi ma'lumot, bilimlarni nafaqat maktabda, balki ommaviy axborot vositalari orqali, tanishlari, qarindoshlaridan ham bilib oladi. Qayd etilishicha, o'quvchi yoshlarni kasb-hunarga tayyorlashning yangi tizimini joriy etish orqali o'quvchi yoshlarni maktab davridan kasb-hunar egallashga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, hech bo'lmaganda bitta kasb egallab chiqishlari uchun zamin yaratadi. Shu bois, maktabni bitirayotgan yigit--qizlar